
Farg'ona shahrida 5 nafar yetim va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlar o'z uylariga ega bo'lildilar

2022 yili shahrimizda 18 yoshga to'lgan 6 nafar yetim va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarga uy-joy ajratilgan bo'lsa, joriy yilning shu kuniga qadar esa 17 nafar yigit-qiz ta'mirlangan va to'la jihozlangan uy-joy egasiga aylanishdi.

Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchi 5 nafar yetim va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan yoshlarga ajratilgan xonadonlarning kalitlari keng jamoatchilik ishtirokida topshirildi.

Davlatimiz rahbari tomonidan yetim bolalar va ota-onas qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarish, ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda.

Amalga oshirilgan ishlar uchun Davlatimiz rahbarining ko'rsatmasi bilan uy-joy sotib olishga respublika byudjeti mablag'laridan ajratilgan bo'lsa, ta'mirlash va jihozlash ishlari uchun mahalliy byudjetning orttirib bajarilgan qismidan sarflandi.

Bugungi tadbirda viloyat hokimi o'rinnbosari Fayzullajon Qosimov, shahar hokimi o'rinnbosari Yusufjon Yusupov hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etishdi. Yoshlar quvonchiga sherik bo'lgan mas'ullar yangi uylarda yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham yaqindan tanishdilar.

O'z uyiga ega bo'lishdek baxtga erishgan yoshlar, Prezidentimizga cheksiz minnatdorchiliklarini izhor etib, kelajakda el-yurtga sadoqat bilan xizmat qiladigan insonlar bo'lishga va'da berdilar.

2023-11-09 13:08:43